

**Xo'jaobod tumani Axborot kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati**

**O'zbek shoirasi Zulfiyaxonim tavalludi
munosabati bilan "Baxtim shu- o'zbekning
Zulfiyasiman"**

esdalik



Xo'jaobod 2026

Kirish

Hurmatli kitobxonlar O'zbek ayolining timsoli bo'lgan Zulfiyaxonimning hayoti va ijodini o'rganish o'sib kelayotgan yoshlarimizga ibrat bo'ladi. Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi O'tgan asrda, qiyin damlarda Zulfiyaxonimning hayoti og'ir kechkan. Lekin uning ijodida bu g'am bilan birga insonning insonga sadoqatini, ayollarning go'zal hayotga chorlashini ko'ramiz. Undagi sabr, iroda ayollarimizga bugun ham zarur bo'lgan fazilat ekanini isbot etgan shoiramizdir.

2017 yilning 3-noyabr kuni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan atoqli va iste'dodli shoirlar Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Jizzax shahridagi 1902-yilda qurilgan “Xo'ja Nuriddin” madrasasi qayta rekonstruksiya qilinib, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi tashkil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan viloyatda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi yaratilgan.

Bundan tashqari Hamid Olimjon va Zulfiya hayotiga bag'ishlab O'zbekiston Kinematografiya agentligining buyurtmasiga binoan 2022-yilda “Muhabbat bahori” badiiy filmi suratga olingan. Unda shoira obrazini aktrisa Shahnoza Hojimurodova,

Hamid Olimjon obrazini esa aktor Hamza Hasanov gavdalantirgan.



Zulfiya Isroilovaning hayoti to'g'risida

Sharqning beqiyos vafo va sadoqatda tengsiz o'zbek ayoli, xalqimizning sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentning O'qchi mahallasida hunarmand oilasida tug'ilgan. Oddiy inson qalbini o'tkir his qila oladigan, so'z san'atkori, hayotni kuylagan shoira edi. Shoira oddiy oilada dunyoga kelganligiga qaramasdan, uning ota-onasi yuqori madaniyatli odamlar bo'lishgan. Shoira onasini xotirlar ekan, uning "so'z"ga bo'lgan mehrini oddiygina ayol, onasi uyg'otganligini bot-bot esga oladi. Tabiiyki, ota-onasi farzandlari o'qimishli, madaniyatli insonlar bo'lishini istaganlar. Ularning orzusini ro'yobga chiqargan

Zulfiya o'rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va oynomalar nashriyatida ish faoliyatini boshladi. She'riyatga qiziqib qoldi va she'rlar yoza boshladi. Uning ilk she'rlari o'sha paytdagi gazetalarda chop etildi. 1932-yil 17 yoshni qarshi olganida, uning "Hayot sahifalari" nomli ilk she'riy to'plami omma yuzini ko'rdi. Bu – yoshlar, do'stlik, inson qalbining go'zalligi haqidagi she'rlar edi.

Zulfiyaxonim she'rlari, dostonlari va hikoyalari e'tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko'rinishida chop etildi. 1938-yildan shoira turli yirik nashriyotlarda ishladi, respublika va respublikalararo har xil tashkilotlar a'zosiga aylanadi. Mashaqqatli urush yillarida ham Zulfiyaning ijodi to'xtab qolmadi. Uning she'rlari g'alabaga ishonch, fashistlarga nafat, g'animga qarshi kurashga chorlov, askar-o'g'il haqidagi ona qo'shig'i, xotini va onasini sog'ingan jasur frontchi, urushga ketgan eri uchun qayg'urayotgan ayol timsoli gavdalandi. Shoira she'rlarining deyarli barchasida hayotning jonli tasvirlarini ko'rish mumkin. She'rlari shunchaki yozilmaydi, insonlarning hayotiy muammolari va qalbning dardli ichki kechinmalari asosida tug'iladigan ijod namunasidir. Zulfiya 1935-yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va 30 yoshida turmush o'rtog'idan ayrilgan. Uning bevaqt vafotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Zulfiya butun hayotini, qalb qo'rini farzandlariga baxsh etdi. U o'zining onalik burchini ham yuksak darajada ado etib, jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega ikki ajoyib insonni tarbiyalab berdi. Zulfiya nafaqat vafo va sadoqat timsoli, mehribon, jonkuyar ona hamdir. Sharqning



beqiyos vafo va sadoqatda tengsiz o'zbek ayoli, xalqimizning sevimli shoiramiz Zulfiya Isroilova 1996 yil vafot etdi



Zulfiya mukofati

O'zbekiston xukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini xisobga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofatlaridan biri **"Zulfiya nomidagi Davlat mukofatini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab quvvatlash to'g'risida"**gi 1999 yil 10 iyundagi farmoniga binoan O'zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilib, adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohalaridagi muvaffaqiyatga erishgan qizlarga har yili 8 mart- Xalqaro xotin-

qizlar bayrami kuni taqdim etiladi. Bugungi kunda ko'plab ijodkor qizlar bu mukofotga sazovor bo'lmoqda. Zulfiya mukofotiga sazovor bo'lish bilan birga unga munosib bo'lish lozim. Tumanimizda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga loyiqlarni aniqlash uchun muntazam ravishda ko'rik-tanlov o'tkazilmoqda. Munosib deb topilganlar keyingi bosqichga tavsiya etilayapti. Darhaqiqat, Zulfiyaxonim yetuk shoira, sadoqat va vafo timsoli sifatida butun o'zbek ayollari uchun namuna bo'laoladi. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibratdir.



Shoiraning ijodi haqida

Shoira sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan..."

Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrlil afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan..."

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni

befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraaning barcha ayollarga, barcha onalarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, ajablanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Zulfiyaning ilk sh'eriya to'plami 1932 yilda "Xayot varaqlari", 1938 yilda "Qizlar qo'shig'i", 1944 yilda "Xijron kunlarida", 1953 yilda "Tong qo'shig'i" 1958 yilda "Men tongni kuylayman", "Yuragimga yaqin kishilar", 1965 yilda "Kuylarim sizga", "Salom sizga erkparvar yellar", "O'g'lim sira bo'lmaydi urush", "Xulka", "O'ylar", "Visol", "Yillar yillar", 1943 yilda "Uni Farhod der edilar" kabi she'riya to'plamlarida Vatan madxi mexnat jarayonida fidokorlik ko'rsatayotgan kishilar xayoti jo'shib kuylanadi.

Zulfiya "O'ylar", "Shalola" kabi she'riya majmualari uchun Davlat mukofoti sovrindori bo'lgan", Xind mavzusidagi she'rlari uchun Javoxarlal Neru nomidagi umumxindiston sovrini, tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari xamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari xarakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro "Nilufar" mukofoti sovrindori bo'lgan.

Shoiraaning "Quyoshli qalam", "Xotira siniqlari" nomli dostonlari she'riyat ixlosmandlarining sevimli asarlariga aylangan. Shoiraaning she'rlari rus, ingliz, nemis, xind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shuningdek Zulfiya A..S.Pushkin, Yu.Lermontov, N.Nekrasov, L.Ukrainka M.Dilboziy, M.Voqif S.Kaputikyan, E.Ognetsvet, V.Inber, M.Karim, A.Pritam, Ye.Bagryana, D.Bedniy, L.Tatyalyanicheva va boshqa ko'plab shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga maxorat bilan tarjima qilgan



Zulfiyaning dardli ichki kechimalari haqida.

She'rlari shunchaki yozilmaydi, insonlarning hayotiy muammolari va qalbning dardli ichki kechinmalari asosida tug'iladigan ijod namunasidir. Zulfiya 1935-yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va 30 yoshida turmush o'rtog'idan ayrilgan. Uning bevaqt vafotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Zulfiya xayotining muxim bir qismini Xamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg'yoki Pari zod va Bunyod"dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg"p'sasi xamda "Zaynab va Omon"operasi librettosini yozdi. Zulfiya butun hayotini, qalb qo'rini farzandlariga baxsh etdi. U o'zining onalik burchini ham yuksak darajada ado etib, jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega ikki ajoyib insonni

tarbiyalab berdi. Zulfiya nafaqat vafo va sadoqat timsoli, mehribon, jonkuyar ona hamdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi

Foydalangan adabiyotlar

1.Зулфия. Халққа дилим бериб кетаман:Назм /Зулфия// Шарқ юлдузи.-2014.-№6.- Б.6-9.

2. Рахимбоева Қутлибека. Саксон йил ловуллаб сўнмаган ўт...: Зулфиянинг 100 йиллиги / Қ.Рахимбоева // Ёшлик.-№11.-Б.2-3.

3. Махмудова Санъат. Юракларда яшаётган шоира / С.Махмудова // Оила ва жамият.-2015.-№1.-Б.5

4. Хуршид Рахмон . Чаппар урар кўкда қўш каптар... Унутмаслик учун // Водий гавхари.-2014, №3.-Б.20-21.

5. Назарова Н. Ўзбекнинг ифтихори: Бархаёт сиймолар / Н.Назарова // Ёш куч, 2015.-№1.-Б.22-23.

6. Асқарова Г. Асримиз маликасига эхтиром / Г.Асқарова // Ёш куч.-2015.-№1.-Б.7.

7. Умарова Н Интернет оламидаги Зулфияхоним: Эхтиром / Н.Умарова // Туркистон.-2015.-21 фев.-Б 1-3.

Tuzuvchi AKM ABX rahbari:

M. Obidova

